

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI
"Oliy matematika" kafedrasining
№8-sonli yig'ilish bayonnomasidan
KO'CHIRMA

29.03.2025
Yig'ilish raisi
Yig'ilish kotibi
Qatnashdilar

Denov.sh
M.R.Sobirova-oliy matematika kafedrası mudiri
E.S.Eshtemirov- oliy matematika kafedrası o'qituvchisi
Barcha professor o'qituvchilar

KUN TARTIBIDA:

1. "Oliy matematika" kafedrası o'qituvchisi E. Eshtemirovning "Amaliy matematika" fanidan "Erkli sinovlar ketma-ketligi. Bernulli sxemasi" mavzusida ikki soatlik ochiq dars maxokamasi.

ESHITILDI:

1-masala. Ushbu masala yuzasidan taqrizchi f.m.f.n., dotsent T. Oripov so'zga chiqib kafedra o'qituvchisi E. Eshtemirovning 11-2024, 21-2024 guruhlarida "Amaliy matematika" fanidan "Erkli sinovlar ketma-ketligi. Bernulli sxemasi" mavzusida o'tgan ikki soatlik ochiq ma'ruza darsi o'tganligi va ochiq ma'ruza o'z vaqtida belgilangan auditoriyada hamda e'lon qilingan mavzuda bo'lganligini aytib o'tdi. Guruhda jurnal bo'yicha 11-2024-guruhda 23 nafar talaba, 21-2024-guruhda 26 nafar talaba qatnashdi. Ochiq ma'ruzada har ikki guruhdan jami 49 nafar talaba qatnashganligi, ya'ni darada talabalar 100% ekanligini haqida professor-o'qituvchilarga ma'lumot berildi. Ochiq dars belgilangan texnologik xaritaga amal qilgan holda o'tilganligini va grafikli taqdimot asosida qiziqarli o'tganligini aytib o'tdi. Kafedra o'qituvchisi E. Eshtemirov darsni interfaol tarzda olib bordi. Tarqatma materiallar va slaydlardan unumli foydalandi, ya'ni pedagogik texnologiyalardan foydalandi. O'tilgan mavzu fan dasturi asosida ishlab chiqilgan ishehi o'quv dasturiga mos keladi. Kafedra o'qituvchisi E. Eshtemirovning pedagogik mahorati ijobiy baholandi. Barcha talabalarning daftari mavjud bo'lib, ularni darsga bo'lgan qiziqishlari o'ta kuchli ekanligi kuzatildi. Kafedrada E. Eshtemirovning ochiq ma'ruza darsi kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan muhokama qilindi va ushbu ochiq dars kafedraning yosh o'qituvchilariga kelgusida pedagogik faoliyatlarida saboqli dars bo'lganligini aytib o'tishdi va o'z fikrlarini bildirishdi. Darsda zamonaviy texnologiyalardan foydalanib dars yaxshi o'tkazildi. Dars yakunida talabalardan so'ralganida, haqiqatan ham ushbu ochiq ma'ruza darsi "Erkli sinovlar ketma-ketligi. Bernulli sxemasi" mavzusi asosida to'g'ri tanlanganligi va samarali, tushumarli o'tganligini aytib o'tishdi va o'zlarining ijobiy fikrlarini bildirishar ekan, o'z o'rnida fan o'qituvchilariga minnatdorchilik ham bildirishdi.

Kafedra yig'ilishi yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqqan holda quyidagicha

QAROR QABUL QILADI

1. pfd (PhD) M.Sobirovaning kafedra o'qituvchisi E.Eshtemirovning 1-kurs 11-2024, 21-2024 guruhlarida Amaliy matematika fanidan "Erkli sinovlar ketma-ketligi. Bernulli sxemasi" mavzusida o'tgan ochiq darsi to'g'risida bildirgan axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin
2. Kafedra o'qituvchisi E.Eshtemirovning 1-kurs 11-2024, 21-2024 guruhlarida Amaliy matematika fanidan "Erkli sinovlar ketma-ketligi. Bernulli sxemasi" mavzusida o'tgan ochiq darsi ijobiy deb topilsin.
3. Kafedra o'qituvchisi E.Eshtemirovga dari davomida yo'l qo'yilgan kamchiliklari yuzasidan o'z ustids ishlash vazifani yuklatilsin

Yig'ilish raisi

Yig'ilish kotibi

(PhD), dotsent M.R.Sobirova

o'qituvchi E.E.Eshtemirov